TARIX

UDK: 92/94+37.01 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a42

TARIXIY MANBALARDA EKIN-TIKINCHILIK TALQINI

ОБСУЖДЕНИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

DISCUSSION OF AGRICULTURE IN HISTORICAL SOURCES

Azizov Ahrorbek A'zamjonovich[1]

[1]**Azizov Ahrorbek A'zamjonovich** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi t.f.f.d

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbeklarning ekin-tikinchilik kasbining turli davrlardagi tarixiy manbalardagi yoritilishi tahlil etilgan. Xususan, Turonning eng qadimgi tarixiga oid yozma manba – Avestoda ekin ekishga berilgan ta'rif, uning qiymati va va'da qilingan martaba ochib berilgan. Bundan tashqari, ilk o'rta asrlardagi ekin-tikinchilik tizimining madaniyatdagi izlari, dunyoqarashdagi aks etishi yoritilgan. Shu bilan birgalikda keyingi tarixiy davrlardagi ekin-tikinchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholining jamiyat va davlatdagi nufuzi manbalar asosida ko'rsatib berilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется освещение узбекской земледельческой профессии в исторических источниках разных периодов. В частности, описание посадки урожая, его значение и обещанная карьера раскрыты в Авесте – древнейшем письменном источнике по истории Турана. Кроме того, выделены следы земледельческой системы раннего средневековья в культуре и ее отражение в мировоззрении. В то же время на основе источников показано влияние населения, занимавшегося сельским хозяйством в более поздние исторические периоды в обществе и государстве.

Abstract

This article analyzes the coverage of the Uzbek agricultural profession in historical sources of different periods. In particular, the description of the planting of crops, its significance and the promised quarry are revealed in the Avesta, the oldest written source on the history of Turan. In addition, there are traces of the agricultural system of the early Middle Ages in culture and reflection in the worldview. At the same time, based on sources, the position of the population engaged in agriculture in subsequent historical periods in society and the state is shown.

Kalit so'zlar: *Turon, AvestoYasht, Axura Mazda, Urvatat Nara, Videvdot, Xo, Beyshi, shan-rivemvatsiyak-tiyek, Divashtich, Devonulug'otit-turk.*

Ключевые слова: *Туран, Авеста Яшт, Ахура Мазда, Урватат Нара, Видевдад,Хо, Бейши, шан-ривем ициак-тиек, Дивашшич, Девану лугатит-турк.*

Key words: *Turan, AvestoYasht, Axura Mazda, Urvatat Nara, Videvdat, Xo, Beyshi, shan-rivem and tsiyak-tiyek, Divashtich, Devonulugatit-turk.*

KIRISH

Qadimdan tarixiy manbalarda ekin-tikinchilik bilan shug'ullanish xususida dunyoqarash ko'rinishlari tasvirlangan. Ularda turli davrlardagi ekin ekish, sug'orish usullari, yerni o'zlashtirish, yerga ishlov beruvchilarga ta'rif, dehqonchilik qonun-qoidalari, yerga ishlov berishning turli usullari, hosilni yig'ishtirib olish, ekinni yetishtirishdagi turli mavsumiy tadbirlar, ekin turlari va ularning zaruriyati, yetishtirilishining o'ziga xos tomonlari kabi jihatlar aks ettirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbeklarning ekin-tikinchiligi tarixiy manbalarda aks etishi va elshunoslik jihatidan tahlili kam tadqiq etilgan muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu ilmiy muammo M. Andreev, B. Karmisheva, V. Basilov, P. Snesarev, K. Shoniyozov, U. Abdullayev, A. Ashirov, Z. Isoqov kabi izlanuvchilar tomonidan turli tadqiqot mavzulari doirasida o'rganilgan. Unga ko'ra, o'zbek madaniyatida xo'jalik, diniy, falsafiy, axloqiy dunyoqarash va boshqa jihatlar yoritilgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti yo'nalishida ham M. Jo'rayev, Sh. Turdimov, A. Tilovov, D. Fayziyeva va boshqa izlanuvchilar tomonidan ekin-tikinchilik bilan bog'liq tasavvurlar ochib berilgan. Bu izlanishlarda o'zbeklar xalq og'zaki ijodida ekin-tikinchilik talqini, marosimlari, xalq qo'shiqlari ko'rsatib berilgan.

TARIX

NATIJALAR

Ilmiy muammo bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar quyidagicha: ekin-tikinchilik asosiy xo‘jalik mashg‘uloti o‘laroq xalqning tabiat bilan bog‘liq qarashlarini o‘zida mujassam etadi va bu dunyoqarash turli tarixiy davrlarda har xil talqin etilgan.

MUHOKAMA

Eng qadimgi yozma manba – Avestoda dehqonchilik qilish ulug‘langan va eng foydali faoliyat turlaridan biri sifatida baholangan. Zardushtiylikda sug‘orish ilmi, ekin ekish va yerni shudgor qilish eng ma’qbul ezgu amal ekanligiga urg‘u berilgan va bu ish bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilar eng oqil kishilardir ekanligi qayd etilgan[4:56].

Yaratuvchanlik, yetishtirish, yerni qayta ishlash zardushtiylikda yuqori baholangan va bu ish bilan mashg‘ul bo‘lganlarni katta mukofot kutayotganligi tasavvur etilgan.

Agar kimda-kim ezgu niyat bilan biror ishga qo‘l ursa Axura Mazda uni taqdirlaydi deb qaralgan. Bu chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilikning barchasiga xosdir[7:293].

Ekin-tikinchilik homiysi va himoyachisi sifatida zardushtiylikda Mitra sifatida tasavvur qilingan va uni yerlari keng ekanligi madh etilgan[3:258]. Bundan tashqari, suv va o‘simliklar baxtga tenglashtiriladi hamda ezgu amal qiluvchilar g‘allalari sermahsul bo‘lishi niyat qilinadi.[3:183].

Axura Mazda chorvachilik va ekin-tikinchilikning bosh homiysi sifatida gavdalansada, turli ma’budlar Axura Mazda buyrug‘iga ko‘ra ekin yetishtirgan va yerni o‘zlashtirgan kishilarni himoya qilishi hamda ularga yaxshiliklarni yetkazadi deb qaralgan.

Suvlari oqib turuvchi va donlari o‘suvchi yerlar Axura Mazda tomonidan beriladi deb qaralgan[2:265]. Ushbu jihat ham bevosita turli ma’bud va ma’budalar oliy xudo istagiga ko‘ra ezgu ish qiluvchilar qo‘llanishi hamda ularga tuganmas suv manbalari hadya etilishi, serhosil urug‘lar tortiq qilinishiga ishonilgan. Shuningdek, yetishtirgan va suv manbalarini ekinlarga yetkazgan kishilar eng oliy maqomga erishishi zardushtiylik qarashlarida alohida qayd etilgan.

Ayrim o‘rinlarda insonlar orasida chorvachilik va ekin-tikinchilik homiysi mavjudligi yoritilgan. Masalan, Zardushtning uch o‘g‘lidan kenjasi “yerlar homiysi” (Urvatat Nara) ekanligi talqin etilgan[2:85]. Yerga ishlov berishni esa yerni baxtli qilish sifatida baholangan[2:90]. Ekin-ekish yerlarning ishi sifatida baholanganligi to‘g‘risidagi tasavvurlar ushbu mashg‘ulotning ancha avval yetishtirish qobiliyatiga ko‘ra alohida soha sifatida shakllanganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, suv manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarashlar ushbu sohada sug‘orma dehqonchilik asosiy ahamiyat kasb etganligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ma’lum bir soxa taraqqiyoti nuqtai nazaridan homiy xudo va ma’budlarning mavjudligi, har bir ma’bud hamda ma’budaning ekin yetishtirgan hamda yerga ishlov bergan kishiga maqtov bag‘ishlashi ham zardushtiylikdagi yaratuvchanlik g‘oyalarining ulug‘lanishi hisoblanadi. Yaratuvchanlik sifatida madh etilgan ekin-tikinchilik ham xudo va ma’budlar tomonidan himoya etilishi hamda ushbu sohani insonlar o‘rtasida boshlovchisi yoki asoschisi mavjudligi xotiralari keyingi diniy tasavvurlarga o‘zlashib, tasavvurlarni yanada boyitishga xizmat qilgan.

Avestoning “Devlarga qarshi qonun” qismida dehqonchilikka bag‘ishlangan madhiya uchinchi fragard (qism)da alohida yoritilgan[2:27]. Alohida qism ajratilgan soha zardushtiylikning bosh falsafiy g‘oyalari asosini tashkil etgan muhim mashg‘ulotlardan biri aynan ekin-tikinchilik bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Avestoning ushbu qismi devlarga qarshi duolar bilan birgalikda ekin ekish, yetishtirish, yerlarni o‘zlashtirish, yerni sug‘orishni devlardan saqlanish amali tarzida madh etadi. Ya’ni ekin-tikinchilik mavjud yerlar devlardan saqlanadi va bunday maydonlarga ular o‘zlarining yovuzlik va kasalliklarini keltira olmaydilar. Yoki bug‘doy ungan yerda devlar halok bo‘lishiga ishonilgan[1:30]. Bug‘doy zardushtiylikda saqlovchi tumor sifatida tasavvur etilishining boisi, uning suv, quyosh nurlari, yer xususiyatini o‘zida mujassam etganligi hisoblanadi. Natijada, o‘zbek xalqi qarashlarida devlarni haydovchi vosita sifatida bug‘doydan qilingan mahsulotlar ham tasavvur qilingan. Yaqin-yaqinlargacha non balo-qazolardan saqlovchi, devlarni quvish xususiyatiga ega ekanligiga ishonilgan[9].

Eng qadimgi manbalarda Turon va unga tutash bo‘lgan hududlarning aholisi mashg‘ulotlari to‘g‘risida ma’lumotlar qayd etib o‘tilgan. Qadimgi xitoy manbalarida turkiy xalqlarning bo‘sh bo‘lgan yerlarni o‘zlashtirishi va g‘alla ekish bilan mashg‘ul bo‘lganliklari qayd etilgan[18:227]. Unga ko‘ra ekin-tikinchilik aholining chorvachilik va savdogarlik kabi mashg‘ulotlari qatorida asosiylaridan biri bo‘lganligi xabarini beradi. Bundan tashqari, xitoyliklar 4000 chavandozlarning Cheshi (Turfon)dagi

yerni egallab, dehqonchilik qilayotganliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni saqlab qolgan. Demak, ekin-tikinchilik Turon xalqlariga qadimdan ma’lum bo‘lgan va ular ekadigan ekin turlari ham ancha xilma-xil bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, dasht hududlari va tog‘oldi mintaqalarda chorva uchun qishki yemishini yetishtirish muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, ushbu ekinlar orasida beda eng keng tarqalgan ekin turlaridan biri ekanligi yilqichilikning ta’siri tufayli vujudga kelgan. Shu bilan birgalikda, aynan Turon xalqlari bilan aloqa tufayli xitoyliklar g‘alla va boshqa ekin turlari, hunarmandchilikni o‘zlashtirib oldilar[6:210].

Szyuan Szyan sayohati davomida turkiylarning yurti bo‘lmish Xo podsholigida ham aholi asosan donli ekinlarni yetishtirishini qayd etib o‘tgan[8:158]. Bundan tashqari, Buyuk Farg‘ona aholisi ekin ekish bilan shug‘ullanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan[18:102]. “Beyshi” asarida *shan-rivem* va *siak-tiek* (janubiy turklarning avlodlari) odatlari dehqonlarnikiga o‘xshashi, ekin ekishni bilishlari va pillachilik bilan ham mashg‘ul bo‘lganliklari yoritilgan[18:244].

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, qadimdan Turon aholisi ekin-tikinchilikning har xil yo‘nalishlari bilan shug‘ullanib kelganlar. Ular turli boshoqli ekinlar yetishtirganlar, hattoki, ipakchilik uchun tutzorlar tashkil etganlar, tariq, arpa kabi ekinlarni ham ekkanlar. Birgina Farg‘ona davlatining o‘zida sholi, g‘alla, uzum va beda ko‘p yetishtirilganligi tarixiy manbalarda saqlanib qolgan[14:22].

Yilqi va boshqa chorva mollari uchun beda hamda boshqa turdagi turli ekinlarni ekish tizimini yo‘lga qo‘yganlar. Natijada, nafaqat ekin-tikinchilikning yuksak madaniyati egasiga aylandilar, balki, haqli ravishda qo‘shni hududlarga ushbu ko‘nikmalarning yoyilishiga xizmat qildilar, tashuvchisiga aylandilar.

Qadimgi yunon-rim manbalarida ham Turon aholining asosiy mashg‘ulotlari to‘g‘risida saqlanib qolgan ma’lumotlarda ekin-tikinchilik turmush tarzining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Unga ko‘ra, eng hosildor yerlarga don-dun ekilishi va qorgan yerlarga esa qoramol uchun yem ekilishi yoritilgan[13:98]. Ayrim hududlarga berilgan ta’rifda ular boy, to‘kin tarzda talqin etiladi. Xususan, deyarli barcha hududlarga ekin ekilganligi yozib qoldirilgan.

Qadimgi Baqtriyaning uzumzor bog‘lari va sug‘orish tizimi yunon-makedon muarrixlarini ham lol qoldirgan. Ular tabiatning naqadar boyligi va yerlariga ishlov berilishi natijasida mo‘l hosil olinishini ta’kidlaganlar[12:149].

Keyingi davrlarda ham Turon aholisining asosiy mashg‘ulotlaridan biri sifatida ekin-tikinchilik dolzarb ahamiyat kasb etib keldi. Xususan, so‘g‘dliklarning teng yarmi ekin-tikinchilik bilan mashg‘ul bo‘lgani tarixiy manbalarda qayd etilgan[21:107]. Bu yetishtirilgan mahsulotning qo‘shni mamlakatlarga yetkazib berilganligini ham tasdiqlaydi. Ayniqsa, sug‘dliklar xitoyliklar bilan savdoda asosiy ta’minotchi bo‘lganliklari tarixiy manbalarda aks ettirilgan hamda yetkazib berilgan mahsulotlar ichida hamisha g‘alla mavjud bo‘lgan.

Ko‘p miqdorda g‘alla yetishtirish asnosida uni saqlash va taqsimlash ishlari ham ancha qadimlarda yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Divashtich arxividagi bir necha hujjatlarda don saqlanishi va tarqatilishiga oid qimmatli ma’lumotlar uchraydi[17:71].

Ushbu tarixiy hujjatlar asosida sug‘dliklarning nafaqat mavsumiy dehqonchilikdan katta hosil olish ko‘nikmasi mavjud bo‘lganligini, balki, keyingi yillar uchun urug‘lik va yegulik zaxirasi sifatida saqlanganligini ko‘rinishimiz mumkin. Sug‘orma ekin-tikinchilikda urug‘ni keyingi yilga tayyorlash eng muhim jihatlardan biri bo‘lsa, sug‘dliklar bu jihatga siyosiy darajada dolzarb hisoblab, e’tibor berganlar.

Keyingi davrdagi tarixiy manbalarda ham ekin-tikinchilik usullari va ushbu mashg‘ulot zaruriyati xususida muhim ma’lumotlar keltirib o‘tiladi. Xususan, Tabariyning “Tarix” asarida hukmdorlar o‘z siyosatlarida ham ushbu soha vakillari amalga oshiruvchi ishi eng ulug‘ ish ekanligi va ularni hurmat qilgan holda hattoki ko‘nglini og‘ritib bo‘lmasligiga e’tibor qaratganlar[5:34]. “Alloh rizqimizni ana o‘shalar qo‘li bilan yetkazadi”, - deb aytiladi Toxiriylarning maxsus farmonida.

Bundan ko‘rinib turadiki, mehnat ahlini qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlarni yaratish bilan birgalikda ularni jamiyatning eng e’zozlanuvchi qatlami sifatida e’tirof etilgan va qolganlarga ham targ‘ib qilingan.

Ularning faoliyati natijasida hududlar gullab yashnaganligi yoki ekinlarni yetishtirishi tufayli shaharlar ham kengayib ketganligini arab tarixchisi Ya’qub al-Hamaviy o‘z asarida e’tirof etib o‘tgan. “Farg‘ona mevaga boy tog‘lari ko‘p o‘lkadir. Uning cho‘ziq tog‘larida olma, uzum, pista,

bodom va boshqa mevalar, turli xil xushbo‘y o‘simliklar gullar, rayhonlar ko‘pdir. Xushhavo, sermevalikda tengi yo‘qdir. U juda keng serhosil. Bunday serhosil o‘lka Movarounnahrda yo‘qdir. Odam ko‘pligidan, ekin va chorvaning mo‘lligidan qishloqlar kengayib, kattalashib ketgandir”, - deb baholaydi muarrix[11:84-97].

Ekin-tikinchilik tizimi, sug‘orish madaniyati, suvdan foydalanish, mehnat qurollariga oid juda ham qimmatli ma’lumotlar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida keltirilgan. Natijada, ko‘plab ekin turlari, ularning nomlari, ulardan tayyorlanuvchi mahsulotlar to‘g‘risida ko‘plab qaydlarni ushbu manbada uchratish mumkin[10:168-173].

Keyingi tarixiy davrda ekin-tikinchilikni yuqori darajadagi zaruriy mashg‘ulot ekanligi xususidagi ma’lumotlarni “Abdullanoma” tarixiy asarida uchratish mumkin. Unga ko‘ra, ekin ekish, unumsiz bir yerni o‘zlashtirish, jonsiz tanani tiriltirishga tenglashtiriladi. Bu kasbni Tangri oldidagi eng pok kasb ekanligi madh etiladi. Bundan tashqari, Odam Ato ushbu kasbni Tangri amri bilan Jabroil alayhissalomdan o‘rganganligi ta’kidlanadi. Shu bilan birgalikda, kasbni ulug‘lovchi qator Hadislar keltirib o‘tiladi[20:175-177].

Ekin-tikinchilikning usullari va u bilan bog‘liq an’analar jamlangan qator manbalar mavjud bo‘lib, ularda islom dinida ekin ekish faoliyatiga berilgan baho hamda tasaffuv vakillari bilan bog‘liq rivoyat, afsonalar jamlangan. Bunday manbalar sirasiga risolalarni kiritish mumkin. Risolalar – soha huquqiy asoslari, talablari, o‘ziga xosligini talqin etadi. Masalan, maxsus ziroatnomalarda yerga ishov berish va o‘g‘itlash kabi tadbirlar ham yoritib berilgan.

Asrlar davomida o‘g‘itlashning o‘ziga xos usuli shakllangan. Unga ko‘ra, eski paxsa devori tuproqlarini solib o‘g‘itlangan. Bu usul samarali bo‘lgan. Bu o‘g‘itlash usulini So‘x hududida “sho‘r” deb atalgan. Chirindi tayyorlash usuli qadimdan o‘lka aholisi tomonidan kashf etilgan bo‘lib, “nuri” yoki “pori” deb yuritilgan[19:15].

Ekin ekishdagi boy tajriba xorijlik sayyohlar qaydnomalari va asarlarida ham o‘z aksini topgan. Masalan, Midderdorf Farg‘ona vodiysi aholisi asosiy mashg‘uloti – ekin-tikinchilik xususida quyidagi fikrlarni yozadi: “Avvalo, biz ming yillar ichida sinalgan, tajriba yutuqlariga boy bo‘lgan yerliklarga shogird tushmog‘imiz lozim” [15:186].

Boshqa bir rus sayyohi Radlov esa: “Bu yerdagi suv sug‘orish tizimi – texnikaviy mo‘jiza, hatto bunday kashfiyotlarni haqiqiy muhandis-irrigator olimlarimiz ham o‘ylab topishi amrimahol. Bu ishlarni ko‘rib hayron qolasiz va oddiy o‘zbek dehqonining ilmiy bilimlarsiz ham shunday mehnati tufayli yaratgan suv inshootlari va sug‘orish usullarini ko‘rib, ofarin deysiz”, – deb yozadi[16:1-66].

XULOSA

Ming yillar davomida shakllangan xo‘jalik mashg‘ulotlaridan biri hisoblangan ekin-tikinchilik manbalarda yaratuvchilik, eng a’lo ish, ma’budlar nazariga tushuvchi kasb sifatida tasavvur qilingan. Kasb nafaqat ulug‘langan, balki, uning keyingi hayotda shubhasiz mukofotlanishi qayd etilgan. Zardushtiylikda ekin-tikinchilik hosilidan biri bo‘lgan donning xislati va insonni turli yovuz kuchlardan saqlashi mumkinligi e’tirof etilgan.

Keyingi davrlarda yozilgan turli tarixiy asarlar, hujjatlarda ekin-tikinchilik muhim davlat ishlaridan biri bo‘lganligini tushunish mumkin. Shuningdek, ekin yetishtiruvchi jamiyatda oliy o‘rinlarda turishi, ularning himoyasi oliy ishlardan ekanligi va Alloh rizqni ularning qo‘li hamda kasbi orqali aholiga berishi madh etilgan. Bundan tashqari, tarixiy manbalarda ekin-tikinchilik xususida elshunoslik nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan jihatlar to‘g‘risida ma’lumotlar saqlanib qolgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. The zend Avesta. Part I. The Vendidad/Translated by James Darmesterer. – Oxford: Clarendon Press, 1880. – 30 p.

2. Авеста «Закон против дэвов» (Видевдат). – Санкт-Петербург: Издательство Политехи, унта, 2008. – 27 с.

3. Авеста В.С. Соколова. Опыт морфологической транскрипции и перевод / И.А. Смирнова. Подготовка материалов к изданию и редактирование. – Санкт-Петербург: Наука, 2005. – 258 с.

4. Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. –56-бет.

5. Ат-Табари Мухаммад. История ат-Табари. – Ташкент: Фан, 1987. – 34 с.

6. Баринова Е.Б. Этнокультурные Китая с народами Центральной Азии в древности и средневековье. – Москва: ИЭА РАН, 2013. – 210 с.

7. Бобоев Н., Дўстжонов Т., Насанов С. “Avesto” – Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. – Тошкент: Тошкент Молия институти, 2004. 293-бет.

8. Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии. во II в. до н. э.— VII в. н. э. (историко-географический обзор но древнекитайским источникам).— Москва: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1989. — 158 с.

9. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти, Олтиариқ тумани. 2017 йил.

10. Исоқов З.С. Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асари этнографик манба сифатида / Ўзбекистон этнологиясининг назарий-методологик муаммолари. Илмий тўплам. – Тошкент: Navro‘z, 2014. – Б. 168–173.

11. Йақуб ал-Хамавий. Мулжам ал-булдан/Пер. с араб. О.Б. Фроловой, Б. Вохобовой//МИСЦА X – XIX вв. – Ташкент, 1988. – С. 84-97.

12. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. – Москва: МГУ, 1993. – 149 с.

13. Қадимги тарихчилар Ўрта осиё ҳақида: Терма парчалар / Тузувчи ва тарж. Зоҳир Аъзам; Масъул мухаррир О. Абдуллаев. Юрист-медиа маркази. – Тошкент. 2008. – 98-бет.

14. Қосимов Е.Қ. Қадимги Фарғона сирлари. Намангон, 1992. – 22-бет.

15. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии Наук, 1882 – С. 186.

16. Радлов В.В., Мелиоранский П.М. Средняя Зарафшанская долина//ЗИРГО. – СПб., 1880. Т. 6. – С. 1-66.

17. Фрейман А.А. Описание, публикации и исследование документов горы Муг. – Москва: Издательство восточной литературы. 1962. – 71 с.

18. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Фарғона: Фарғона, – 227-бет.

19. Ҳасаний М. Зироатнома. – Тошкент, 1991. – Б. 15.

20. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома (“Шарафномаи шоҳий”). Иккинчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳакимжонов тарж.; Изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 175 – 177-бетлар.

21. Шамсиддин Камолиддин. Согдийский сборник. Выпуск 8. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане. LAP LAMBERT, 2021. – 107 с.